



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**“ГЕОГРАФИЯНИНГ МИНТАҚАВИЙ
МУАММОЛАРИ”**

**РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯСИ МАТЕРИАЛЛАРИ**



JIZZAX 2017

тинчлик ўрнатиш бўйича БМТ шафелиги остида сиёсий музокаралар ўтказишдан иборат эканлиги, ҳукумат ва "Толибон" каби ўзаро курашаётган кучлар ўртасида музокаралар жараёнини қайта тиклаш муҳимлигини, бу борада томонлар музокаралар жараёнини бошлаш учун олдиндан бирон-бир шарт қўймаслиги лозимлигини таъкидлаб келмоқда.

Ўзбекистон, Афғонистон билан икки томонлама ўзаро ҳамкорлик принципига риоя этган ҳолда, коммуникациялар, ташқи дунё билан боғлайдиган Термиз-Мозори Шариф темир йўл тармоғини қуришга ўз хиссасини қўшмоқда. Афғонистонга, хусусан Қобул шаҳрига электр энергияси етказиб беришни таъминламоқда. Ўзбекистон Афғон диёрида доимо тинчлик ўрнатилиши тарафдори бўлиб келмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Колосов В.А. Геополитика и политическая география. - М., 2002.

Kamolov M.N., Normatov. D.M.
Jizzax davlat pedagogika instituti

OSIYONING MITTI DAVLATLARI HAQIDA

Dunyoning eng yirik qit'asi Osiyo deb ataladi va bu nom uning geografik o'rni bilan bog'liq. Qadimgi assuriyaliklar tilida "sharq" ma'nosini beradi. Tabiiyki, bu qadimiy davlatdan sharqda joylashgan hududlar "asu" deyilgan va keyincha uning areali kengayib butun qit'aga nisbatan qo'llanilgan. Hozirda Osiyo qit'asida 49 ta katta-kichik mustaqil davlat mavjud. Ularning ko'pchiligi jahonning yirik davlatlari hisoblanadi. Shu bilan birga qit'a davlatlari orasida hududining kichikligi bilan ajralib turuvchi davlatlar ham uchraydi. Masalan, Baxrayn (698,3 kv km), Bruney (5765 kv km), Maldiv Respublikasi (298 kv km), Singapur (692,2 kv km) va boshqalar.

Ular orasida Bruney davlati maydoni (5765 kv km) jihatidan eng yirigi hisoblansa, aholi soni bo'yicha Singapur (5,5 mln.kishi) etakchi o'rinni egallaydi. Yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha Bahrayn (34700 dollar) va Bruney (33600 dollar) eng yuqori ko'rsatgichga ega bo'lsa, Singapur (8000 dollar) va Maldiv Respublikalari (3900 dollar) ko'rsatgichlari nisbatan pastroq. Mazkur mamlakatlarda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning xalq xo'jaligining yirik tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishida quyidagi holatni ko'rish mumkin: xizmat ko'rsatish sohasida Maldiv Respublikasi (77%) va Bahrayn mamlakatlari (56%) yetakchilik qilsa, sanoat sohasida Bruney (71,6%) va Singapur (45,3%) davlatlari, qishloq xo'jaligi sohasida Maldiv Respublikasi (7%) va Singapur (4,9%) yetakchi hisoblanadi.

Bahrayn Qirolligi - Osiyoning janubi-g'arbidagi davlat. Fors ko'rfazining shimoli-g'arbiy qismida Saudiya Arabistoni va Qatar davlatlar qirg'oqlari bilan chegaradosh 33 ta orolda joylashgan. Ularning orasida eng yirigi Arabiston yarim oroli bilan uzunligi 25 km.ga yaqin masofada bog'langan Bahrayn orolidir. Bahrayn orolining uzunligi 25 km., eni 16 km.ni tashkil etadi. Orollar materik va marjonli kelib chiqishiga ega. Tuproq qatlamida ohaktosh keng tarqalgan. Hududining katta qismini chala cho'llar egallagan. Arxipelagning baland nuqtasi Jabal-al-Duxan (134 metr).

2002 yildan boshlab davlat qirollik deb e'lon qilindi. Davlat boshlig'i - qirol. Hukumatni bosh vazir boshqaradi. Mamlakat iqlimi quruq tropik. Katta orollarda chuchuk suv manbalari - buloqlar mavjud. Mamlakat hududida neft konlari topilguncha dengiz suvi tubidan marvarid olish Baxrayn iqtisodiyotining asosini tashkil qilardi, hozirgi kunda ham bu soha yetakchi o'rin egallaydi. O'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab neft qazib olish va uni qayta ishlash tez rivojlandi. Ilgari neftni qayta ishlash yalpi ichki mahsulotning 60% ni tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi kunda 30% ni tashkil qilmoqda. Neft konlari zahiralari tugab bormoqda. Mamlakatda tabiiy gaz qazib olinadi va qayta ishlanadi, uning zahiralari ham ko'p emas. Bahraynda bank xizmat ko'rsatish biznesi yaxshi rivojlangan.

Mamlakat poytaxti Manamada ko'plab arab trasmilliy korxonalarining bosh qarorgohlari joylashgan. Sanoat tarmoqlaridan supertankerlar kemasozligi, sement ishlab chiqarish, kimyo alyuminiy sanoati yaxshi rivojlangan. Alyuminiy zavodlariga xomashyo - rudalar Avstraliyadan keltiriladi. Vohalarda xurmo daraxtlari, sitrus mevalar, pomidor, makkajo'xori, bug'doy, arpa, sabzavotlar, yong'oqlar yetishtiriladi. Mamlakat aholisining bir qismi baliqchilik bilan ham shug'ullanadi. Echki, qo'y, va zebusimon qoramollar boqiladi. Mamlakatda turizm rivojlangan. Asosiy eksport mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari, alyuminiy, marvarid. Asosiy savdo hamkorlari: Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH, Avstraliya.

Bruney Sultonligi - Kalimantan orolining shimolida joylashgan davlat. Shimoliy sohillari Janubiy Xitoy dengizi bilan tutashgan. Mamlakat hududi shimol va janubda tepaliklar bilan o'ralgan, sohilbo'yi pasttekisliklardan iborat. Iqlimi musson ekvatorial. Qazilma boyliklardan yirik neft va tabiiy gaz konlari mavjud. Mamlakat hududining 75% ini tropik o'rmonlar (palma, bambuk, daraxt ko'rinishidagi qirqquloq, orxideya tropik mevalar) egallagan.

Davlat boshlig'i - sulton. Aholisining - 67% malaylar, 15% xitoylar, 7% dayaklar va boshqa millat vakillari tashkil etadi. Bruney dunyodagi eng boy davlatlardan biri. Ishlaydiganlarning 40% ni sharqiy va janubi-sharqiy Osiyodan kelgan yollanma ishchilar tashkil qiladi. Davlat iqtisodiyotining asosiy qismini neft va gaz qazib olish va qayta ishlash tashkil qiladi. Suyutirilgan gaz ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 4 o'rinda turadi. Gaz tashuvchi tanker (kema) lari gazni Yaponiya va boshqa davlatlarga yetkazib beradi. Neft va gazning bir qismi qo'shni Saravak (Malayziya) zavodlarida qayta ishlanadi. Mamlakatda selyuloza-qog'oz, ma'danli o'g'itlar, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va yog'ochsozlik sanoati rivojlangan.

Bruneyda sholi, makkajo'xori, kokos, banan, ziravorlar, kakao va qahva yetishtiriladi. Mahalliy hunarmandchilik turlari orasida oltin va kumush iplardan naqsh solish, zargarlik, bronzadan esdalik sovg'alar yasash rivojlangan. Asosiy eksport mahsulotlari: neft va uning mahsulotlari, tabiiy gaz. Savdo hamkorlari: Evropa mamlakatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, AQSH, Malayziya, Tayland.

Maldiv Respublikasi - Hind okeanining shimoliy qismida joylashgan davlat. Uning tarkibiga 1192 ta marjon orollari kiradi va ulardan 112 tasi o'zlashtirilgan. Mamlakat hududi shimoldan janub tomon 750 km masofaga cho'zilgan bo'lib, yarim oysimon shaklida joylashgan. Asosiy tabiiy resursi baliq. Iqlimi - janubda ekvatorial mussonli, shimolda esa subekvatorial mussonli. Mamlakatda chuchuk suv tanqisligi bor, shuning uchun chuchuk suvni import qiladi. O'simlik dunyosi - kokos palmalari va banan daraxtlari ko'p. Hayvonot olami - dengiz suvlarida 700 xildagi baliq va moluskalar, 650 turdagi marjonlar, 5 xil kitlar, 16 xil turdagi delfinlar va toshbaqalar uchraydi.

Mamlakat 1968 yildan buyon Maldiv Respublikasi deb ataladi. Davlat va hukumat boshlig'i - prezident. Maldiv iqtisodiyotining asosiy tarmog'laridan biri - turizm. Bundan tashqari baliqchilik, bu sohada ishga yaroqli aholining 80% band, baliqchilik umumiy eksportning 60% tashkil qiladi. Bundan tashqari engil sanoati, elektron tarmoqlarni yig'ish, kemasozlik yo'lga qo'yilgan.

Qishloq xo'jaligida aholi kokos palmasi, sorgo (jo'xori) sabzavotlar, mevalar, banan, mango, ananas yetishtiradi. Mahalliy hunarmandchilik: yelkanli va oddiy kemalar yasash, chig'anoqlardan buyumlar tayorlash, oltin va kumushdan taqinchoqlar yasash, marjonlarni o'yish ham yo'lga qo'yilgan. Qishloq xo'jaligi mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojining 10% ta'minlaydi, qolgan 90% import qiladi. Asosiy eksport mahsulotlari: baliq, kopra, kiyim-kechak, taqinchoqlar. Asosiy savdo hamkorlari: Tayland, Shri-Lanka, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya.

Singapur Respublikasi - Singapur oroli va 50 dan ziyod kichik orollarda joylashgan davlat. Singapur oroli Malay yarim orolidan Joxor bo'g'ozi, Sumatra orolidan Singapur bo'g'ozi bilan ajralib turadi. Qirg'oq bo'ylab chegara uzunligi 193 km ni tashkil etadi. Singapur davlati kichik tepaliklardan tashkil topgan tekislikdan va ular markaziy qismda ko'proq joylashgan. Tepaliklar

tuproq'ini sun'iy orollar qurish va markaziy orol hududini janub tomon kengaytirish uchun ishlatilamoqda.

Mamlakat iqlimi - ekvatorial mussonli, nam va issiq. Yillik yog'in miqdori 2000-2500 mm ga yetadi. Daryolari katta emas, irmoqlarida sun'iy suv havzalari va suv omborlari (Kraji, Muray, Poyan, Tengix, Apper-Pirs, Selitar) qurilgan. Mamlakatda ichimlik suvi yetishmaydi, shuning uchun suv Malayziya va Binton orolidan olib kelinadi. Nam ekvatorial o'rmonlar kesib tashlangan. Faqat orolning markaziy qismida Bukit-Timaks tabiat qo'riqxonasida saqlanib qolgan. Singapurda chirmovuqsimon noyob tropik o'simliklari bor, jumladan bugenvelleya. Orollarda paparotniklar, bambuklarning juda ko'p xillari mavjud. Singapurda qushlarning xilma-xillari, maymunlar va noyob jonzorlar - lemurlar yashaydi.

Singapur - nisbatan rivojlangan davlat. Mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning 69,8% xizmat ko'rsatish sohasidan, 25,3% sanoatdan, 4,9% qishloq xo'jalik sohasidan keladi. Sanoatning asosiy tarmogi - telekommunikatsion axborot elektronikasidir. Mamlakatda kemasozlik, elektrotexnika, kimyo, rezina sanoatlari rivojlangan, bundan tashqari mamlakat neftni qazib olish uskunalari ham ishlab chiqaradi. Singapurda 5 ta neftni qayta ishlash zavodi bor, ular import qilingan neft bilan ishlaydi. Bundan tashqari 4 ta IES bor. Orol chekkalarida 33 ta sanoat zonasi joylashgan.

Qishloq xo'jaligida asosan kauchik yetishtiriladi. Kauchik Singapurning asosiy eksport mahsuloti hisoblanadi. Transportida dengiz transporti yetakchi. Mamlakat ichida avtomobil (2597 km), temir yo'l (38 km) transportidan yuk va yo'lovchi tashishda foydalaniladi. Singapur (poytaxti) - jahonning eng yirik savdo portlaridan biri.

Singapur - yirik bank markazi, biznes va sug'urta markazi. Bu yerda Osiyoning ko'plab tijorat banklari va xalqaro korxonalarining qarorgohlari joylashgan. Singapur valyuta birjasi amaliyotlari jami bo'yicha dunyoda 4- o'rinda turadi. Singapurda, shuningdek, texnapark va biznesparklar mavjud. Ular axborot texnologiyalariga, farmasevtika va biotexnologiyalarga ixtisoslashgan. Asosiy eksport mahsulotlari: kompyuter texnikasi, ofis va telekommunikatsion jihozlar, neft mahsulotlari, kauchikdan iborat. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH, Malayziya, Yaponiya, Gonkong hisoblanadi. 1819 yili ingliz savdogari Tomas Reflez bu hududni Malakka sultoni Johordan sotib olib, Singapur shahriga asos solgan. 1959 yili Singapur Britaniyadan muxtoriyat huquqini oldi va 1965 yili Singapur o'zini mustaqil respublika deb e'lon qildi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Osiyoning mitti mamlakatlari, hudud, aholi soni jihatidan kichik mamlakat bo'lsalarda, ammo ulardan ba'zilarining iqtisodiyoti yirik mamlakatlar iqtisodiyotidan qolishmaydi. Yalpi milliy mahsulotlarini aholi jon boshiga taqsimlanganda bu mamlakatlar ba'zi rivojlangan davlatlardan ham ancha ustunligi bilan ajralib turadi. Shunisi ham xarakterliki, ulardan Maldiv va Singapur davlatlarida ichimlik suvi import qilinadi. Ularning savdo sheriklari jahonning o'ta rivojlangan mamlakatlari AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa, Osiyo yo'lbarzlari, Xitoy va boshqalar hisoblanadi. Mazkur mitti davlatlarning ayrimlarida (Maldiv Respublikasi, Baxrayn, Bruney) temir yo'l transporti mavjud emas.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Кузнецов Н. География населения и хозяйства мира. Москва. «Дрофа». 2012.
2. Internet saytlar. <http://geo.1september.ru>. wgeo.ru geografiya.ru world.freeglobus.com

Таштаева С.К., Ўроков М.
Ўзбекистон Миллий университети

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ШАҲАРЛАРИНИНГ ДЕМОГРАФИК РИВОЖЛАНИШИ

Самарқанд вилояти ўзининг табиий иклимий шароитлари, иқтисодий, ижтимоий, тарихий ва маданий омиллари таъсирида азалдан бу ерда аҳолининг таркиб топиши ва келиб ўрнашишига сабаб бўлган. Зарафшон дарёсининг кенг водийлари, унумдор тупроқлар аҳолини ўзига жалб этган ва аҳоли зич жойлашувини таъминлаган. Шу боис ҳам, бу вилоятда

увларининг
максадида
дан такрор
авзаларига
камайган.
тўловлар
ва сувдан
ширилади.
саклашни
тарбияни
онтида уни
тет, 1995.-
-Тошкент:

IV шўба
**ТОПОНИМИКА ВА ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИНИНГ ДОЛЗАРБ
МУАММОЛАРИ**

Абдулқосимов А.А., Камолов М.Н.
Самарқанд давлат университети, Жиззах давлат педагогика институти

ГЕОГРАФИК НОМЛАР ҲАҚИДА КИТОБ

Ўзбекистонда бугун малакали кадрлар тайёрлаш масаласига ҳар доимгиданда кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Шу маънода олий ўқув юртларида таълим олаётган талабаларни мукамал ўқув адабиётлари билан таъминлаш мазкур жараёнда ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Бироқ мактаб, коллеж, академик лицей ўқувчилари учун тизимли чоп этилаётган дарсликлардан фаркли ўларок, олий таълим муассасалари талабаларига мўлжалланган адабиётлар биров тақчил. Аксар илмий китобларнинг чет тилларида экани эса ўз-ўзидан таълимда муайян қийинчиликларни юзага келтиради.

Шу нуқтаи-назардан қараганда, олий ўқув юртлари учун нашр қилинган Қ.Ҳақимовнинг "Топонимика" дарслигини олий ўқув юртлари география таълими талабалари учун муносиб тўхфа дейиш мумкин. Дарслик Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 30.05.2015 йили № 191-сонли буйруғи билан дарслик сифатида тавсия этилди. 2016 йили дарсликни катта тиражда Тошкент шаҳридаги "Мумтоз сўз" нашриёти чоп этди. Республика олий ўқув юртлари учун, топонимика фанидан биринчи дарслик айнан, Жиззах давлат педагогика институти доценти, география фанлари номзоди Қўчқор Ҳақимов томонидан яратилганлиги жуда қувонарли ҳолдир.

Яна бир эътиборли томони шуки, китоб мустақиллик йилларида топонимика фанидан чоп этилган ягона дарслиқдир. Мазкур дарслиқнинг чоп этилиши мамлакатимизда истиқлол йилларида ижтимоий, сиёсий, иқтисодий, маънавий соҳаларда олиб борилаётган ислохотларга тўла мос келади. Чунки сўнгги йилларда Ўзбекистонда «Географик объектларнинг номлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни (2011 йил 12 октябрь № ЎРҚ-303) ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг (2012 йил 16 октябрь № 295) «Географик объектларнинг номлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ географик объектларнинг номлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ географик объектларнинг номлари соҳасидаги ишларни тартибга солиш чора-тадбирлари ҳақида»ги Қарори қабул қилинди.

Муҳими шуки, мазкур дарслик янги қабул қилинган қонун ва қарорлар талабларини амалда бажариш ҳамда таълимнинг узлуксизлигини таъминлаш, иқтидорли ёшларни илмий-тадқиқот ишларнинг устивор йўналишларига кенгрок жалб қилиш, олий таълим муассасаларида юқори малакали илмий-педагогик кадрлар тайёрлашни таъминлашга хизмат қилади. Яратилган янги дарслик топонимика фанининг намунавий ўқув дастурига тўла мос келади ва китобдаги бой географик, тарихий ва лингвистик маълумотлар мазкур фан ҳақида илмий тушунчалар ҳосил қилишга етарли.

Дарсликни мақсад ва вазифаларидан келиб чиқиб, унинг таркибий қисмлари қуйидагича: биринчи бобда топонимика фанининг умумий қонуниятлари таҳлил қилинган, иккинчи боб географик номларнинг классификациясига бағишланган, учинчи бобда амалий топонимиканинг ҳозирги замон муаммолари, яъни, жой номларининг ёзилиш қоидалари, транскрипцияси ва уларни стандартлаш каби масалалари тадқиқ қилинган, тўртинчи боб макроминтақалар топонимиясининг ҳудудий таҳлилидан иборат.

Муаллиф амалий топонимикага баҳо бериб, жой номлари замонавий цивилизациянинг ажралмас қисмидир, деб тўғри хулоса чиқарган. Чунки, инсоният ва жамият тараккиётини асрлар давомида шаклланган ўзига хос топонимик муҳитсиз

тасаввур қилишни иложи йўқ. Зеро, қадимий номларда ота-боболаримизнинг ҳаёт ва тафаккур тарзи яққол ўз аксини тошган, улар халқимизнинг азалдан ўтрок ҳаёт кечириб, юксак маданий турмуш даражасига эга бўлганлигидан далолат беради.

Китобда географик номларнинг тўғри ёзилиши жуда муҳим ва мураккаб масала эканлиги алоҳида қайд қилинган. Унинг муҳимлиги шундаки, жой номидаги бирор ҳарф нотўғри ёзилиб қолса, фонетик ўзгаришлар оқибатида бутунлай бошқа маъноли топонимга айланиб кетиши мумкин. Топонимларнинг тўғри ёзилишининг мураккаблиги шундаки, улар турли тиллар маҳсули бўлиб, аслида ўша тиллар қоидаларига мувофиқ ёзилиши керак. Шу сабабдан, жой номларини нуксонсиз тўғри ёзиш, халқнинг умумий имловий саводхонлигининг узвий бир қисми бўлиб, маълум даражада, кишиларни билим ва маданий савиясини ҳам белгилайди.

Қундалик матбуотда, хусусан, газета ва журналларда, радио ва телевиденияда, дарсликларда, бадиий адабиётларда республика ва чет мамлакатларга оид минглаб географик номлар учрайди. Буларнинг ҳаммасини ҳам тўғри эканлигига ҳеч ким қафолат беролмайди. Ўзбекистон ҳудудидаги географик номлар ўзбек тили имлосининг амалдаги қоидалари асосида ёзилиши шарт. Улар маълум бир қатъий принципларга асосланган, мантикли, ва бугунги кун талаб даражасига жавоб бериши талаб қилинади.

Давлат ҳокимияти ва фуқароларни ўз-ўзини бошқариш органларида, алоқа, транспорт, статистика, оммавий ахборот воситаларида, географик карталар ва атласларда ҳамда бошқа нашрларда, шуниндек иқтисодиёт, фан, маданият, спорт, жамоат бирлашмаларида, юридик ва жисмоний шахслар томонидан географик ном қатъийан бир шаклда ёзилишига эришини давлатнинг суверенлигини кўрсатувчи далиллардан биридир. Географик номлар халқ тилининг улкан тарихий миллий бойлиги сифатида муҳофаза қилиниши керак. Чунки, табиат ва жамият тарихи билан боғлиқ бўлган турли бой маълумотларни ўз бағрида сақлайдиган жой номларини авайлаб-асраш давлат аҳамиятига молик бўлган тadbирлар сирасига киради.

Китобда жой номларини муҳофаза қилишнинг муҳим омилларидан бири, кишиларни географик объектларнинг номига тўғри ва оқилона муносабатда бўлиши зарурлиги айтилган. Бунинг асосий шартларидан бири географик номларни ўринсиз, етарли асосларсиз ўзгартирмаслик ҳисобланади. Жой номларини турғунлиги, тарихий номларни дахлсизлигини таъминлайди ва топонимларнинг тарихий қатламларини аниқлаш ва асрашда муҳим аҳамият касб этади.

Муаллифнинг фикрича, географик объектларга ном бериш ёки уларни қайта номлаш иши бутунлай мафкуравий ва сиёсий қарашларни ифода этувчи ва тарғиб қилувчи воситага айланиб кетмаслиги зарур. Бунда муайян меъёр, чегарани сақлаш лозим. Шу билан бирга, географик номлар халқ ва давлат манфаатларига мос келувчи объектив ва қонуний жараёнларни ифодалашга маълум даражада хизмат қилишини ҳам унитмаслик лозим. Жой номларини муҳофаза қилиш иши, ўтмишда турли сабабларга кўра, кўпинча топонимик зуғум туфайли истеъмолдан чиққан ва унутилган номларни қайтадан тиклашдек муҳим вазифани ҳам ўз ичига олади.

Номшунос олим, топонимика фанининг ҳозирги даврдаги энг муҳим вазифаларидан бири, жой номларини стандартлашнинг илмий асосларини ишлаб чиқиш зарурлигини таъкидлаган. Зеро, жой номларини қўллаш кўлами оддий фуқародан то давлат ҳокимияти органларигача кенгайди. Шу сабабдан, ҳар бир номнинг ички ва ташқи муомалада ягона шаклини тасдиқлаш ва уни қатъийлаштириш вақти келди.

Бундан ташқари жой номлари миллий кадрларнинг қатламларидан бири сифатида, халқ тарихи, маданияти, тилини ўзида мужассам эгиб, миллий бирлигини ва давлат мустақиллигини мустаҳкамлашда муҳим восита бўлиб хизмат қилмоқда. Шу нуктаи-назардан қараганда, дарсликнинг яна бир муҳим жиҳати шундаки, у географ, тарихчи ва филологларнинг илмий-тажикот ишларини ўзаро манфаатли тарзда олиб бориш ва уларни ўзаро бир-бирига янада яқинлаштириш имконини беради.

Олимнинг фикрича, топонимик билимларни қўллашнинг энг мақбул йўли географик объектларнинг номлаш ва қайта номлаш соҳасидаги давлат сиёсатини янада такомиллаштириш, амалиётда улардан самарали фойдаланиш, барча номларни тўла инвентаризациядан ўтказиш ва макбуллаштириш, давлат реестрини тузиш ва уларнинг ягона ахборот базасини яратишдан иборат. Ҳар йили бу соҳага оид чоп этилаётган кўплаб илмий ва илмий-оммабоп нашрлар топонимик маълумотларга кизиқиш ортиб бораётганлигидан далолат беради.

Китобда янги авлод дарсликларига қўйилган талаблардан келиб чиқиб, ҳар бир мавзу сўнгида савол ва топшириқлар билан бирга, тест топшириқлари ҳам берилган. Улар талабаларни мустақил изланишга ва қўшимча адабиётларни таҳлил қилишга ундайди. Дарсликка фанга оид қўшимча маълумотлар билан бирга тест топшириқлари илова қилинган ва улар ҳам талабалар эътиборини ўзига тортади. Умуман олганда, мазкур дарслик нафақат талабалар, балки мактаб ўқитувчилари, илмий тадқиқот муассасалари ходимлари учун ҳам фойдали манба ҳисобланади.

Муаллиф мазкур дарслик билан, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ва Республика «Истеъдод» жамғармаси томонидан эълон қилинган «Йилнинг энг яхши дарслиги ва ўқув адабиёти муаллифи-2016» республика танловида қатнашди. 2016 йил 28 октябрда Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ва Республика «Истеъдод» жамғармасини 39/52/26-сонли қўшма қарори билан танлов натижалари эълон қилинди.

Танлов ҳайъати қарорига кўра, Ҳакимов Қўчқор «Йилнинг энг яхши дарслиги ва ўқув адабиёти муаллифи-2016» республика танлови ғолиби бўлди. Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, олимнинг кўп йиллик илмий-педагогик фаолияти давомида чоп этган дарслик, ўқув қўлланма, монографиялари ва 150 дан ортиқ илмий ва илмий-оммабоп мақолалари топонимика фани равнақига қўшган муносиб ҳиссадир. Китоб муаллифини «Йилнинг энг яхши дарслиги муаллифи-2016» республика танлови ғолиби бўлгани билан самимий табриклаб, келгуси илмий ва педагогик фаолиятида куч-қувват ва омадлар тилаймиз.

Миракмалов М.Т.

Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ ОРОНИМЛАРИ ВА ГИДРОНИМЛАРИ ХУСУСИДА

Маълумки, географик жой номлари кўпинча ўрганилаётган жойнинг ўтмиши ва тарихи, қандай уруғ-қабилалар яшаганлиги ҳақида маълумот бериши билан бирга, ўша жойнинг географик ўрни, рельефи, ўзига хос хусусиятлари, сувлари, ўсимликлари ва ҳавонот дунёси ҳақида ҳам қимматли маълумотлар беради. Шунинг учун ҳам жой номлари кўпчиликни қизиқтиради.

Жиззах вилояти табиати ўзига хослиги билан ажралиб туради. Вилоятнинг шимолӣ ва шимоли-ғарбий ҳамда марказий қисмлари асосан текислик - Мирзачўл ва Қизилқум чўллари эгаллаган. Жанубий қисмида Туркистон тизмасининг ғарбий тармоқлари, ғарбий қисмида Нурота тизмасининг шарқий тармоқлари жойлашган. Бу икки тоғ тизмасини Сангзор водийси ажратиб туради.

Жиззах вилояти топонимларини махсус ўрганган Қ.Ҳакимов⁴ (2010) жой номларининг шаклланишида минтақа ижтимоий-иқтисодий географик хусусиятларини очиқ беришга йўналган тадқиқот ишини бажарган. Унда Жиззах вилоятидаги жой номларининг номланиш қонуниятлари ва уларнинг географик жиҳатлари аниқланган, вилоят ойконимлари харитаси ишланган, янги объектларни номлаш бўйича тавсиялар

⁴ Ҳакимов Қ. Жой номларининг шаклланишида минтақанинг ижтимоий-иқтисодий географик хусусиятлари (Жиззах вилояти мисолида). АКД. -Тошкент, 2010.